

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

BOLALAR FOLKLORI MAVJUDMI?

Salimaxon Mirzayeva Rayimjonovna

*Andijon davlat universiteti o‘zbek adabiyoti kafedrası
filologiya fanlari doktori proeffessor*

Odinaxon Mahamadjonova Xamidullo qizi

Andijon davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada bolalar folklorining bugungi kunda mavjud yoki mavjud emasligi haqida fikr yuritilgan. Folklor oddiy tuyulgani uchun nazardan chetda qolib ketishi mumkin. Aslida, u mavjud. Bolalar folklori ham. Zamon rivojlangan, texnikalar ko‘paygan bizning zamonamizda uni anglash, his qilish uchun insondan biroz e‘tibor talab qilinadi.

Kalit so‘zlar: folklor, bolalar folklori, o‘yin folklori.

Annotation: This article discusses the current existence or non-existence of children's folklore. Folklore may be overlooked because it seems simple. In reality, it exists, including children's folklore. In our modern era of development and increasing technologies, a bit of attention is required from individuals to understand and feel it.

Keywords: folklore, children's folklore, game folklore.

Аннотация: В данной статье рассматривается вопрос о том, существует ли детский фольклор в современности или нет. Фольклор может показаться простым и, следовательно, оставаться вне поля зрения. На самом деле он существует. И детский фольклор также. В эпоху стремительного развития технологий для понимания и восприятия его требуется немного внимания со стороны человека.

Ключевые слова: фольклор, детский фольклор, игровой фольклор.

Bolalar folklori – bu bolalar ichki dunyosining bir qismi hisoblanadi. Bolalar folklorini o‘rganish, bolalar dunyosini o‘rganish demakdir. Bolalar folklori haqida eshitgan insonlar: “Bolalar folklori qiziq, lekin u mavjudmi?”-degan savolni berishdi. Bolalar folklori milliy folklorning eng muhim elementlaridan biri ekanligi inkor etilmaydigan haqiqatdir. Bolalar onasining qornidaligi paytidayoq folklor elementlariga duch keladi. Tug‘ilganidan so‘ng esa o‘zi yashayotgan jamiyatning an‘analari va urf-odatlariga muvofiq o‘tib-ulg‘ayadi. Milliy folklor bilan bolalar folklori orasida nozik chiziq mavjud. U nozik chiziq, bolalar folklori faqat bolalarga oid ekanligi deb aytish mumkin. Bolalarga oid bo‘lgan hamma narsani: ularning hayot tarzi, o‘yinlari, harakatlari bolalar folklorini hosil qiladi.

“Kishilik jamiyatining barcha bosqichlarida bolalarga o‘zlarining mavjudliklari uchun kurashib yashashga to‘g‘ri keladi. Albatta, bu sinfiy xarakterdagi kurash bo‘lmay, balki bolalarning kattalar (ota-onalar ma‘nosida) nazorati ostida ularga o‘rinbosarlar va voris sifatida yashamoq, qaror topmoq niyati zamirida kechgan bir qadar xolis va tashvishlarga to‘lib-toshgan ulg‘ayish jarayonini ifodalovchi kurash edi. Bu kurash chaqaloqni go‘dakka, go‘dakni bolaga, bolaning o‘spiriga va

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

o’spirinning jamiyat yukini yelkaga olishga aylangunga qadar, asosan, jismoniy va ma’naviy chiniqish yo’sinida kechdi, ayni chog’da davrga xos ijtimoiy munosabatlar ta’sirida bo’lajak insonning shakllanishini ta’minlaydi.” [1.130]

Bolalar folklori bolalar atrofida yuzaga keladi. Uning maqsadi esa bolalaga ta’sir qilishdir. Bolalar folklori, umuman olganda, folklor oddiy ko’ringani uchun nazardan chetda qoladigan murakkablik deb aytish mumkin. Bolaning hayoti folklor olamida aks etadi. Folklor ham huddi tosh qoldiqlari singari intellektual o’tmishning qoldig’i deyish mumkin. Ibtidoiy odamlarning omon qolish uchun qilgan xatti-harakatlari bolalar folklorida saqlanib qolgan. Bolaning asosiy vazi-fasi o’z ijtimoiy dunyosini tartibga keltirishdir. Bola buni qanday uddalaydi? U jonsiz narsalarga shaxs sifatida munosabatda bo’ladi va shunday qilib, u o’z ijtimoiy faoliyatini boshlaydi, tartibga keltiradi. Butun olamni shaxsiy tasavvuri orqali jonlantirib tajriba hosil qiladi.

“Milliy ma’naviyatimizning o’ziga xosligini ko’rsatuvchi jihatlardan biri hisoblangan o’yinlar xalqimiz maishiy turmushining ajralmas qismiga aylanib ketgan. O’yin folklori ajdodlarimizning ijtimoiy-ma’naviy va estetik ehtiyojlari asosida yuzaga kelgan. Chunki har bir o’yin shunchaki bo’sh vaqtni ko’ngilli o’tkazish vositasi emas, balki yosh avlodni jismoniy va ma’naviy jihatdan barkamol qilib tarbiyalashning samarali usuli sifatida shakllangan qadimiy an’analardan biridir. O’yinlar xalq ommasining ijodiy salohiyati natijasida yuzaga kelganligi, asrdan asrga an’ana tarzida yashab kelayotganligi, turli-tuman variantlarda ommalashganligi, badiiy so’z (folklor), izchil tizim sifatida shakllangan harakat va ohang uzvlaridan tarkib topganligiga ko’ra mohiyatan xalq og’zaki ijodi na’munasi hisoblanadi.” [3.4]

Bolalar o’yinlari eng qadimiy, tarixiy hujjatlardan biri hisoblanadi. Xususan, Mahmud Qoshg’ariy mashur “Devonu lug’otit turk “ asarida ham bolalar o’yinlari haqida ma’lumotlar berilgan. Ular kattalar qiladigan jiddiy narsalarni o’zlariga xos tarzda o’ynashadi. Ularni o’tmishdagi marosimlarning kaliti deb hisoblasak arziydi.

“O‘zbek bolalar o‘yin folklori qadimiyligi va an‘naviyiligi, ma‘lum ijtimoiy-badiiy taraqqiyot bosqichini bosib o‘tganligi, bag‘rida qadimgi ajdodlarimizning ibtidoiy-mifologik tasavvurlarini, e‘tiqodiy qarashlarini, tarbiya normalarini saqlab kelayotganligi bilan ajralib turadi. Shuning uchun o‘ziga xos badiiy-tadrijiy takomiliga erishgan o‘zbek bolalar o‘yin folklorini o‘rganish orqali o‘tmish tariximiz va bugungi ma‘naviy kamolotimiz asoslarini bilib olish imkoni tug‘iladi.”

[2.4]

Bolalar mehnat dunyosidan ajralib asta-sekin o’ziga xos submadaniy guruh sifatida tobora shakllana boshladi. Bolalar qishloq va shaharlarda shogirdlikka

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

o’qigan, o’z mahalla va ko’chalarida an’anaviy o’yin-kulgular bilan shug’ullanishgan. Bolalar uchun maxsus kiyimlar, maxsus adabiyotlar, o’yinchoqlar sotib olish XVII asr oxirida avj oldi. Umumjahon maktab ta’limi joriy etildi. Bizning asrimizga kelib esa o’yinlar orqali bolalarning ko’ngilochar vaqtlarini tashkil etish ortib bordi.

Bolalar o’yin o’ynash jarayonida beixtiyor kattalarga taqlid qilib harakatlanadilar. Bolalarning o’yinlari - madaniy merosdir. Bolalar folklori madaniyatimiz rivojlanishining quyi qismi bilan bevosita bog’liq ekanligini hisobga olsak, masala ancha oydinlashadi. Ular kattalar bajaradigan jiddiy narsalarni o’ziga xos tarzda o’ynashadi.

Bolalarning eng asosiy vazifasi o’zining ijtimoiy dunyosini tartibga keltirishdir. Bola buni turli xil yo’llar bilan amalga oshiradi. Jonsiz narsalarga shaxs sifatida munosabatda bo’ladi. Shunday qilib, u o’zining ijtimoiy faoliyatini boshlaydi va tartibga keltiradi. Butun olamni shaxsiy tassavuri orqali jonlantirib tajriba hosil qiladi va o’zidan keyingi avlodlarga yetkazib berayotganini o’zi ham to’la anglab yetmaydi.

Bolalar o’z an’analarni o’zidan keyingi avlodlar uchun saqlab, yetkazib berishda konservativ bo’lsalar ham juda moslashuvchan hisoblanadilar. Bolalar folklorini yetkazish, umuman olganda folklorning uzatilishi masalasi tabiiy ravishda keng qamrovli masalalar sirasiga kiradi. Chunki folklor tabiatan ijtimoiy hodisa hisoblanadi.

“Devon-u lug’otit turk”da qadimgi turkiylar tomonidan ommaviy tarzda o’ynalgan jismoniy o’yinlar, musoboqa tipidagi o’yinlar, bolalarning harakatli, vositali (predmetli) va aqliy o’yinlari haqida g’oyat qimmatli ma’lumotlar keltirilgan. Bu materiallar XI asrda yashagan turkiy qabilalarning o’yin folklori bilan bugungi o’zbek xalq o’yinlari orasida vorisiylik, an’anaviylik, genetik aloqadorlik mavjudligini ko’rsatadi.” [3. 14]

Og’zaki an’analarning boy va xilma xil bo’lishida tafakkur va tasavvurning ahamiyati katta. Folklor materiallari xalq orasida va dunyo miqiyosida tarqalishini huddi markaziy bezovtalik markazidan chiqayotgan suvdagi to’lqinlar va keyin ma’lum bir yo’nalishda oqayotgan suv oqimiga o’xshaydi. Folklor manbalari go’yoki avval muayyan hududda mavjud bo’ladi. Keyin esa turli xil sabablar bilan atrofga yoyilib, xalqlar orasiga tekis oqishda davom etayotganday go’yoki. De-makki, folklor manbalarini kelib chiqishi sababi va , albatta, tarqatuvchilar mavjud. Folklor manbalarini tashuvchilar ham o’z o’rnida ikki turli bo’ladi:

- 1) Faol
- 2) Passiv

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

Masalan ,ertaklarning tarqalishi yuqori darajada halokatli. Faqatgina yaxshi xotira sohiblarigina tasavvur va hikoya qilish qobilyati bilan ertaklarni avloddan avlodga yetkazishda o’z hissalarini qo’sha oladilar. Bunday tashuvchilarni faol tashuvchilar guruhiga kiritishimiz mumkin. Achinarli tomoni shundaki , bunday tashuvchilar juda ham ozchilikni tashkil qiladilar. Passiv tashuvchilar esa ertakni eshitadi, lekin uning ma’lum bir qisminigina eslab qoladi. Bunday tashuvchilar asosan ertak tinglashga qiziquvchilar sirasiga kiradi. Shuningdek, savdogarlar, sayyohlar, hunarmandlar ham folklor manbalarini tashuvchi vazifasini bajarishi mumkin. Ular vaqtinchalik tashrifi davomida xalq orasidagi urf-odat, an’ana, xalqona o’yin kabilarni ko’rishadi yoki eshitishadi. Natijada o’z yurtlarida yodida qolgan elementlarni shaxsiy tasavvurlariga tayangan holda talqin qiladilar. Folklor materialini mutatsiyaga uchraydi. Ayni damdagi mutatsiya bir kun kelib o’z holiga qaytishi mumkin. Ya’ni o’zgarishga yuz tutgan folklor elementi bir kun o’z holiga qaytadi.

Ma’lum bir folklor elementini ushlab turishning imkoni bo’lmasa, u ,albatta, “uzatiladi”. Bu holat huddiki mexanik signalni eslatib yuboradi. Folklor ta’sirli shaklga kirib biror kishining nutqi yoki harakatida artikulatsiya topib o’sha xotirada iz qoldiradi. U xotira qisqa yoki uzoq muddatli ekanligiga qaramasdan u “ a” sifatida paydo bo’ladi. Umuman olganda , xalq og’zaki ijodida shakl va mazmun vaqt o’tishi bilan asl holda saqlanib qolishi ehtimoldan yiroqdir.

“O’rta Osiyo hududida mavjudligi qayd qilingan qoyatosh suratlari, g’orlarga tushirilgan ibtidoiy tasvirlarda ajdodlarimiz ov jarayonlari bilan bog’liq turli tuman chizgilarni ifodalaganliklari ma’lum. Bizningcha, ana shunday tasvirlar orasida ov bilan aloqador o’yinlar ham tasvirlangan. Varaxsha, Afrosiyob kabi qadimgi shaharlarning devorlarida tirandozlar mashqlari tasvirini ham shu zaylda baholash mumkin. Shu boisdan ham biz xalq o’yinlarining tasviriy ko’rinishlari eng qadimgi osori atiqalarda o’zining badiiy ifodasini topgan deb hisobladik.” [3.94]

Bolalar folklori bunday nazariyani ishlab chiqish uchun juda ham qulay joy hisoblanadi. Kattalarning serqirra dunyosidan ko’ra bola dunyosini o’rganish qulayroqdir. Bolalar sohasida manbalarni aniqlik bilan ko’rishimiz mumkin. Kuza-tiladigan jarayonlarni yaxshiroq boshqarish, chetdan kuzatish mumkin. Bolalarni folklor materialini qayta ishlash, umuman olganda ,folklori yetkazish jarayonining mikrokosmosi sifatida qabul qilish mumkin. Ushbu tajriba bolalar hayotida ham undan tashqarida ham dolzarbligini aytib o’tish joiz.

“O’yinlar bolalar hayotida ijtimoiy, fiziologik, estetik ahamiyat kasb etadi. O’yinlarning ijtimoiy ahamiyati shundan iboratki, bola bevosita tabiat va jamiyat

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

qo’ynida, oila bag’rida yashaydi, o’ynaydi. Bola o’yin vositasida tabiat bilan yaqinlashadi. O’z o’yini uchun zarur bo’lgan predmetlarni: novdalar, barglar, loy, tosh va hozkazolarni tabiatdan oladi. Ko’pgina o’yinlarni tabiatning so‘lim go’shalarida: suv bo’yida, ariq labida, tog‘larning etagida, g‘orlar bo’yida, daraxtlar soyasida tashkil etadi. Yoki juda ko’p bolalar o’yin sifatida biror jonivorni boqib, uni parvarishlaydilar, yo biror o’simlikni ekib undiradilar. Bularning barchasidan bola olam-olam zavq oladi.” [2. 37]

Zavq olibgina qolmasdan, ular hayotga shu tarzda tayyorlanadilar. O’zbek xonadonlaridagi an’ana, urf-odat, o’zaro munosabatlar, hunar o’rganish, biror kasb bilan mashg’ul bo’lish kabi holatlar bolalarning ayniqsa, maishiy o’yinlarda o’z aksini topadi. “Qush uyasida ko’rganini qiladi” degan maqol bejizga aytilmagan. Bu kabi holatlar folklor, bolalarda uning o’ziga xos akslanishi bolalar folklori deyiladi.

“Kelajak avlodlarimizning har tomonlama sog’lom rivojlanishi nafaqat jismoniy balki aqliy, ma’naviy jihatdan rivojlanishi uchun folklorning ahamiyati katta. Bolalar folklori mavjud. Faqatgina bolalarga astoydil e’tibor berilsa, kifoya. Yig’ilib olib o’yanayotgan bolalarni asta kuzatilsa, ular qandaydir o’yin o’ynayotgan, yoki o’ylab topayotgan, ba’zan esa turli xil ajoyib voqealarni so’zlab berayotgan bo’ladilar. Masalan, varrak uchirayotgan yoki o’yinchoq samalyotni o’ynayotgan bola qalbida uchuvchi bo’lish orzusi, asfaltga qing’ir-qiyshiq rasm solayotgan bolaning kelajakda rassom bo’lib yetishish istagi ma’lum bir o’yin lahzasidagina tug’ilishi hech gap emas. Shu-shu bu o’yinlarga nisbatan bolalarning qiziqishi va e’tibori jiddiylashib, muayyan bir izga tushib, nihoyat kasb tanlovi darajasigacha o’sib chiqadi.”[2.38]

Qaysi bir katta odamdan egallab turgan kasbiga qachon qiziqib qolganini so’rasangiz, bolaligidagi qaysidir voqea, holat yoki o’yinni aytishiga guvoh bo’lasiz. Hech bir narsa, boshidan yangi yaratilmaydi. Bugungi kundagi komoyuter o’yinlarining asosi ham folklorga borib taqaladi. Bolalarga nimanidir o’rgatmoqchi bo’lgan dodno xalqimiz, unga zavq, o’yin ruhini kiritishgan. Majburlab emas, o’rganayotganini o’zi ham sezmay qoladi. Yillar o’tib angelaydiki, u bejizga bo’lmagan ekan. Unga chuqur ta’sir qilganini behtiyor angelaydi. Demakki, bolalarga ta’sir qiluvchi, kelajagiga poydevor qo’yuvchi katta kuch bu folkloridir. Uning mavjudligi bugungi kunning yutug’i deb aytish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Safarov O. O’zbek bolalar poetik folklori. T.:O’qituvchi 1985
2. Safarova N. O’zbek bolalar o’yin folklorining janriy tabiati, genezisi va badiiy xususiyatlari. diss,2005
3. Galiyev Sh. O’zbek bolalar o’yin folklori.T.: “Fan” 1998.